

## Talaba qizlar va ota-onalar uchrashuvi

2021-yil 30-oktabr kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining 3-talabalar turar joyida tarbiyachi – pedagog A.Xaitova tashabbusi bilan talaba qizlar hamda ota-onalar uchrashuvi tashkil qilindi. Talaba qizlarimizning yashash sharoitini o'rganish maqsadida ularning ota-onalari tashrif buyurishdi.



Ular bilan ichki tartib-intizom, kiyinish madaniyati, tozalik, qizlarimizning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun qanaqa shart-sharoitlar yaratilganligi bilan yaqindan qiziqdilar. Ota-onalar bilan suhbatlashib bo'lgach, talabalar turar joyidagi sharoitlar bilan tanishtirib chiqildi. Tikuv to'garaklari, kir yuvish xonasi, tibbiyot xonasi, kompyuter xonalari, kutubxona hamda m'anaviyat xonalari bilan tanishar ekan, bunaqa imkoniyatlardan unumli foydalanish kerakligini cheksiz mamnuniyat bilan ta'kidlab o'tdilar. Bunaqa imkoniyatlarni yaratib bergan institut rahbariyati hamda talabalar turar joylari ma'muriyatiga o'z minnatdorchiligini izhor etishdi.



Hamda bunaqa uchrashuvlar tez-tez o'tkazilishi hamda hamkorlikda ishlash kerakligini taklif qilishdi. Talabalar turar joyiga uyushtirilgan kichik sayohatimizdan so'ng, talaba qizlarimiz o'z qo'llari bilan pishirgan har xil noz-ne'matlar dasturxonga tortildi. Qizlarimiz o'zlari pishirgan taniq taomlar, salatlar, pishiriqlardan tanovul qilib, bir dasturxon atrofida dildan suhbatlashishdi. Bu tadbir qizlarimizda bir-biriga bo'lgan hurmat, opa-singilchilik, mehmondo'stlik, pazandachilik kabi xislatlarni namoyon qildi. Tadbir so'ngida qizlarimiz bunaqa tadbir va uchrashuvlar tez-tez o'tkazilishi maqsadga muvofiqligini e'tirof etishdi.

**3-TTJ tarbiyachi-pedagogi A.Xaitova axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati**